

TARIX

6-sinf «Tarix» fanidan bosqichli nazorat sinovini o'tkazish uchun tavsiya etilayotgan savollar umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilariga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tayyorlangan. Bosqichli nazorat sinovida o'quvchilar ikkita savolga javob berishlari kerak bo'ladi.

Quyida keltirilgan savollar bo'lgan «Jahon tarixi»ga oid 1ta, «O'zbekiston tarixi»ga oid 1 ta, ya'ni umumiy ikkita savoldan iborat biletlar konvertga solinib muhrlanadi. Biletlar maktab direktori seyfida saqlanadi. Bosqichli nazorat sinovi kuni konvertlarning muhrlanganligi o'quvchilarga ko'rsatiladi va shundan keyingina ular ochiladi. O'quvchi biletlardan bittasini tanlab oladi va unga javob beradi. 6-sinf «Tarix» fanidan bosqichli nazorat sinovi uchun taklif etilayotgan mazkur savollar jami 60 tani tashkil etadi. Savollarga maktab metodbirlashmasi qarori bilan takliflar, tuzatishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin.

O'quvchilarning savollarga javob berish jarayonida quyidagi BKM elementlarini egallaganliklari tekshirilishi lozim:

- Tarixda yil hisobi, xronologiya haqida bilimga ega ekanligi;
- Voqea-hodisalarning jahon tarixining muayyan davriga taalluqli ekanligini bilishi;
- Arxeologiya, antropologiya haqida bilimga ega ekanligi;
- Etnografiya va numizmatika haqida bilimga ega ekanligi;
- Dunyo xalqlarining jahon madaniyatiga qo'shgan hissalarini bilishi;
- Qadimgi Misr madaniyati haqida bilimga ega bo'lishi;
- Qadimgi odamlarning mashg'ulotlari, turmushi haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Diniy e'tiqodlar va ularning paydo bo'lish sabablarini bilishi;
- O'zbekistonning qadimgi tarixiga oid manbalarni bilishi;
- Ahamoniyalar davlatining paydo bo'lishi va uning harbiy yurishlari haqida bilimga ega bo'lganligi;
- O'rta Osiyoga yunon-makedon qo'shinlarining yurishi haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Qadimgi davrda O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashlari haqida bilimga ega ekanligi;
- O'zbekiston hududidagi qadimgi shaharlar haqida bilimga ega ekanligi;
- Zardushtiylikning vujudga kelishi haqida bilimga ega ekanligi;
- Olimpiada o'yinlarining boshlanishi haqida bilimga ega ekanligi;
- O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi harbiy san'ati haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Yunon-fors urushlari haqida ma'lumotga ega bo'lganligi;
- Yunon madaniyati haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Qadimgi Xitoy madaniyatining jahon taraqqiyotidagi o'rni haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi haqida bilimga ega ekanligi;
- Kushon podsholigi haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Qadimgi Rim Respublikasi faoliyati haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Rim madaniyati haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Xristianlik dinining paydo bo'lishi haqida ma'lumotga ega ekanligi;
- Voqealarni ko'rgazmali aks ettirish asosida tahlil qila olish ko'nikmasiga ega ekanligi;
- Jahon tarixidagi qadimgi davrlarni Vatanimiz tarixining qadimgi davrlari bilan bog'lay olish ko'nikmasiga ega ekanligi;
- O'z fikrini mustaqil bayon qilish ko'nikmasiga ega ekanligi;

Xarita va ko'rgazmali qurollar bilan mustaqil ishlay olish malakasiga ega ekanligi.

O'quvchilarning bilimlari quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lsa, amaldagi baholash mezonida baholanadi:

- tarixiy hodisalarning joyini aniqlab, tarixiy xaritadan voqea sodir bo'lgan joyni topa olishi; — tarixiy voqea va hodisalarni taqqoslab va qiyoslab, xulosa chiqara olishi;
- tarixiy hodisa va jarayonni og'zaki ravon nutqda bayon qila olishi;
- tarixiy atamalarning mazmunini bilishi va o'z o'rnida to'g'ri ishlata olishi;
- tarixiy voqealarning aniq tarixiy davri yoki sanasini to'g'ri ayta olishi.

O'zbekiston tarixi:

1. Sivilizatsiya nima degani?
2. Eng qadimgi davrning yozma manbalarini sanab bering.
3. Behistun qoyatosh yozuvlari qayerda joylashgan? — tarixiy voqea va hodisalarni taqqoslab va qiyoslab, xulosa chiqara olishi;
- tarixiy hodisa va jarayonni og'zaki ravon nutqda bayon qila olishi;
- tarixiy atamalarning mazmunini bilishi va o'z o'rnida to'g'ri ishlata olishi;
- tarixiy voqealarning aniq tarixiy davri yoki sanasini to'g'ri ayta olishi.

O'zbekiston tarixi:

1. Sivilizatsiya nima degani?
2. Eng qadimgi davrning yozma manbalarini sanab bering.
3. Behistun qoyatosh yozuvlari qayerda joylashgan? 4. Eng qadimgi davrdagi tuzum haqida gapirib bering.
5. Urug'chilik tuzumi qanday xususiyatga ega?
6. Hozirgi qiyofadagi odam tipi qanday nomlanishini va u qayerdan topilganligini ayting.
7. Mashhur Teshiktosh yodgorligi qachon va kim tomonidan topilgan?
8. O'zbekistonda mezolit davri manzilgohlari haqida ma'lumot bering.
9. O'zbekistonda neolit davri xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
10. O'zbekistonda eneolit davri xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
11. O'zbekiston hududida bronza davri dehqonlarining manzilgohlari haqida nimalarni bilasiz?
12. Jarqo'ton va Sopollitepa aholisining mashg'uloti va turmush tarzi haqida nimalarni bilasiz?
13. Kulolchilik charxi va g'ildirak qaysi davrda ixtiro qilingan?
14. Temirdan mehnat qurollari yasash qachondan boshlangan va birinchi bo'lib temirdan kimlar foydalangan?
15. O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq (Savdo va madaniy aloqalar) o'rtasidagi aloqalar haqida ma'lumot bering.
16. Zardushtiylikning vujudga kelishi haqida ma'lumot bering.
17. «Avesto» kitobi haqida nimalarni bilasiz?
18. Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi haqida ma'lumot bering.
19. O'zbekiston hududidagi ilk davlat birlashmalari (Qadimgi Baqtriya va Xorazm) haqida nimalarni bilasiz ?
20. Ahamoniylarning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari haqida ma'lumot bering.
21. Ahamoniylarga qarshi kurash olib borgan milliy qahramonlar haqida nimalarni bilasiz?

22. O'rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi haqida nimalarni bilasiz ?
23. Qadimgi davrda O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati haqida nimalarni bilasiz ?
24. O'rta Osiyoning Salavkiylar davlati tarkibiga kirishi haqida ma'lumot bering.
25. Yunon-Baqtriya davlati haqida ma'lumot bering.
26. Qadimgi Xorazm davlati haqida nimalarni bilasiz?
27. Qang' davlati haqida nimalarni bilasiz?
28. Dovon davlati haqida ma'lumot bering.
29. Kushon podsholigi haqida ma'lumot bering.
30. Buyuk Ipak yo'li haqida nimalarni bilasiz?

«Jahon tarixi»

1. Qadimgi odamning rivojlanishi qanday bosqichlarga bo'linadi?
2. Eng qadimgi davrni davrlashtirish haqida ma'lumot bering.
3. Eng qadimgi odamlarning mashg'ulotlari haqida ma'lumot bering.
4. Ilk diniy tasavvurlar va dafn tartiblarining vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
5. Mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
7. Eneolit va bronza asri ziroatchilari manzilgohlari haqida ma'lumot bering.
8. Nil vodiysi va uning aholisi haqida ma'lumot bering.
9. Iyeroglif nima?
10. Qadimgi Misr yozuvlarini kim birinchi marotaba o'qigan?
11. Fir'avnlr kimlar va ular haqida nimalarni bilasiz?
12. Qadimgi Misr tarixiy obidalari va piramidalarning qurilishi haqida nimalarni bilasiz?
13. Qadimgi misrliklarning dini va madaniyati haqida ma'lumot bering.
14. Mesopotamiya shahar-davlatlari haqida nimalarni bilasiz?
15. «Hayot daraxti» nima va uning odamlar hayotidagi ahamiyati qanday bo'lgan?
16. Hammurapi qonunlari haqida ma'lumot bering.
17. Bobilda o'qish, yozish qanday bo'lgan?
18. Ahamoniylar davlatining paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
19. Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi haqida ma'lumot bering.
20. Xitoyda qilingan kashfiyotlar haqida ma'lumot bering.
21. Buyuk Xitoy devori qurilishi haqida ma'lumot bering.
22. Qadimgi Xitoy madaniyati haqida ma'lumot bering.
23. Afina demokratiyasi haqida ma'lumot bering.
24. Yunon-fors urushlari haqida ma'lumot bering.
25. Olimpiada o'yinlari haqida nimalarni bilasiz?
26. Qadimgi yunon allomalari haqida nimalarni bilasiz?
27. Italiya va uning aholisi, hududi va tabiiy sharoiti haqida nimalarni bilasiz? 28. Rim Respublikasi haqida ma'lumot bering.
29. Qadimgi Rimda ta'lim qanday bo'lgan?
30. Xristianlik dinining vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?